ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«MAONIY AN-NAHV» KITOBIDA «NA'TI MAQTU'» (UZILGAN SIFAT) HODISASI

Abdullayev Davronbek Dilmurod o'g'li,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi o'qituvchisi

Arab tili grammatikasi (nahv) tizimida sifat (na't) o'zidan oldingi ismga (man'utga) e'rob jihatidan to'liq ergashishi (itbo') qat'iy qoida hisoblanadi. Biroq, mumtoz arab tilida e'tibor qaratishga loyiq bo'lgan qiziq bir hodisa mavjud bo'lib, bu «qirqish» yoki «uzish» (عطْع) deb ataladi. Bunda sifatlanmish marfu' (bosh kelishik) bo'lsa, uning sifati mansub (tushum kelishigi) da kelishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Hozirgi nutq uslublaridan deyarli yo'qolib ketgan ushbu hodisa aslida tilning ulkan balog'ati va ta'sirchanligini namoyish etadi. Ushbu maqolaning maqsadi na'ti maqtu' hodisasining grammatik qoidalari va mohiyatini tahlil qilishdir.

Tadqiqot manbasi sifatida arab nahvshunosligi va balog'at ilmining mumtoz asarlari xizmat qildi. Xususan, Sibavayhning «Al-Kitob», Ibn Hishomning «At-Tasrih», Forisiyning «Mu'tarak ul-aqron», shuningdek, «Sharh ar-Roziy ala al-Kafiya», «Sharh Qatr an-Nado», «Al-Komil» va Qur'oni Karim tafsiriga oid «Al-Kashshof» kabi asarlardagi na'ti maqtu'ga oid qoidalar va misollar (oyat va she'rlar) material qilib olindi.

Ishda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Mumtoz grammatik asarlarda keltirilgan qoidalar umumlashtirilib, e'rob o'zgarishlarining (raf'dan nasbga yoki majrurdan raf'ga o'tish) gapning umumiy ma'nosiga va pragmatik maqsadiga qay darajada ta'sir qilishi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qirqish (uzish) uslubi faqatgina odatiy ergashish bilan ado etib bo'lmaydigan nozik ma'noni beradi. E'robning kutilmaganda o'zgarishi tinglovchi diqqatini tortuvchi «qizil chiroq» vazifasini o'taydi. Natijalarga ko'ra quyidagi asosiy xulosalar olindi:

1) Uzish faqatgina sifatlanuvchi shaxs aynan shu sifat bilan hammaning og'ziga tushgan, hammaga ma'lum bo'lgandagina qo'llaniladi. Agar sifat shunchaki ismni ajratish (tamyiz) uchun bo'lsa, uzish qat'iyan man etiladi.

2) Nasb holatida uzish «men ko'zda tutyapman, maqtayapman, yomonlayapman» kabi fe'llar yashiringanini (أعني, أمدح, أذم) bildiradi.

3) Raf' holatida uzish «U» (وهو) olmoshi yashiringanini bildirib, ismiy jumla shaklida xususiyatning barqarorroq va doimiy ekanligini ifodalaydi.

4) Bog'lovchilar (atflar) orasida qirqish ham ma'lum bir amalning (masalan, sabr yoki namozning) boshqa amallardan afzalligini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Taniqli olim Fozil Samirroiyning «Ma'oniy an-nahv» asarida keltirilgan «Na'ti maqtu'» (Uzilgan sifat) hodisasi va uning sintaktik-semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi[1]. Muallifning e'tirof etishicha, arab tilida e'tibor qaratishga loyiq bo'lgan qiziq bir hodisa mavjudki, bu «(عطْع)» (qirqish, uzish) hodisasidir. Asar tahlili orqali ma'lum bo'ladiki, bu uslub bilan na't (sifat) ning e'rob (kelishik shakli) da sifatlanmishga (man'utga) mos kelmasligi va undan farq qilishi nazarda tutiladi. Qachonki sifatlanmish marfu' (bosh kelishikda) bo'lsa, uning sifati mansub (tushum kelishigida) bo'lishi mumkin. Shuningdek, man'ut nasbda bo'lib, sifati raf'da kelishi, yoxud man'ut majrur (qaratqich/jo'nalish kelishigi) da bo'lib, uning sifati raf' yoki nasbda kelishi ruxsat etiladi. Masalan: «(مررت بمحمد الكريمِ وأ الكريمُ)» (Karamli Muhammadning oldidan o'tdim / الكريمِ yoki الكريمُ tarzida o'qib). Sifatda bunday qirqish juda ko'p yuz beradi va u atf (bog'lovchi) da ham uchrashi mumkin. Bunga Fozil Samirroiy Baqara surasining 177-oyatini va Niso surasining 162-oyatlarini misol qilib, marfu' (raf'dagi ism)ga nisbatan nasb holati bilan bog'lanish (atf) qilinganini ko'rsatib beradi. Garchi bu kabi hodisa hozirgi nutq uslublaridan allaqachon yo'qolib ketgan bo'lsa-da, u til taraqqiyotida kuchli ifoda vositasi bo'lgan.

«Ma'oniy an-nahv» asari tahlilidan kelib chiqadiki, qirqish (عطْع) faqatgina odatiy ergashish (اتباع) bilan ado etib bo'lmaydigan nozik ma'noni berish uchun qo'llaniladi. U tinglovchining diqqatini darhol uzilgan sifatga qaratadi va uni hushyor torttiradi. Odatiy ergashishda esa bunday xususiyat yo'q, chunki na'tning asli qoidasi o'zidan oldingi ismga ergashishdir.

[1] as-Sāmarrāʾī, Fāḍil Ṣāliḥ. Maʿānī an-Naḥw. ʿAmmān: Dār al-Fikr, 1420 h. / 2000 m. 4/193–199.

Muallifning ta'kidlashicha, agar siz ular o'rtasidagi kelishikni ataylab farqli qilsangiz, aqlni ogohlantirasiz va uni g'ayrioddiy bir narsa tomon harakatlantirasiz. Bu holat xuddi yo'ldagi e'lonlar taxtasi yoki qizil chiroqqa o'xshaydiki, u butun diqqatni tortib, nima sababdan bu yerga o'rnatilganini o'ylab ko'rishga majbur qiladi. Bu uslub tinglovchini hushyor qilishga qaratilgan bo'lib, u mavsufning mazkur xususiyat bilan xarakterlanishi diqqatni tortmay qolmaydigan eng yuqori nuqtaga yetganiga dalolat qiladi.

Fozil Samirroiy o'z tahlilida turli klassik manbalarni umumlashtiradi. «Xoshiyatu Yasin ala at-Tasrih»dagi Sa'dning fikrlariga ko'ra, e'robning farq qilishi va odatiy yo'ldan burilishi san'atida (iftinon) tinglovchi uchun ko'proq ogohlantirish, uni uyg'otish, va eshitishga bo'lgan ishtiyoqini junbushga keltirish xususiyati bor[1]. Ayniqsa, fe'l yoki mubtadoni tushirib qoldirish yuz berganda bu narsa yanada oshadi, chunki bu muayyan ishga eng katta e'tibor berish dalilidir. «Irshad al-aql as-salim» asaridagi Abu Alining izohlariga tayanib aytiladiki, muayyan ma'no uzra yo'naltirilgan gapning birdan o'zgarishi gapiruvchi tarafidan yuzaga chiqqan mutlaqo yangi muhim e'tiborni ko'rsatadi. «Mu'tarak ul-aqron»da Forisiy aytganidek, madh yoki zam o'rnida ketma-ket sifatlar kelsa, ularning kelishiklarini turlicha qilish eng chiroyli uslubdir, chunki kelishiklar bir xil qolaversa faqat bitta monoton tur saqlanib qoladi. Farra ta'kidlaganidek, arablar go'yoki nasb qilingan sifatni so'zning avvaliga mutlaqo aloqasi yo'q bo'lgan, ergashtirilmagan yangi madh sifatida ajratib chiqarishni iroda qiladilar.

Asar tahlili shuni ko'rsatadiki, qirqish (uzish) sodir etilganda, bu tinglovchi sifatlanuvchining shu xususiyatga egaligini huddi gapiruvchining o'zi singari juda yaxshi bilishini e'tiborga olish demakdir. «(الفَوْلَاذ)» na'ti maqtu' – sifatlangan shaxs aynan shu sifat bilan hammaning og'ziga tushganiga asoslanadi, shu sabab bu gap bilan unga yangilik bildirilmaydi. Masalan, «(مررت بهمدح الكريمِ)» deb (e'robni ergashtirib) aytilganda maqsad faqatgina uni boshqalardan farqlab olish bo'lsa, uni uzib aytganda bu shaxs qanday ekani hammaga ma'lum ekanligini iddao qilish bo'ladi, bu esa eng kuchli madh hisoblanadi. Alloh taolo Masad surasida: «{حمالة الحطبِ امرأتهُ و}» deb aytganida ham sifat nasb bo'lib keldi, chunki U ayolni barcha biladigan sifatda keltirdi, qolaversa buni mubolag'a siyg'asi orqali zammiga aylantirib, qirqish yordamida bu xunuk ishning hech kimga sir emasligini ma'lum qildi.

Fozil Samirroiy shuningdek, uzishning qat'iy cheklovlarini ham sanab o'tadi[2]. Agar sifat faqat nomni oydinlashtirish va sifatlanmishni boshqalardan ajratib turish (tamyiz) uchun xizmat qilsa, uni qat'iyan qirqib bo'lmaydi. «Zero ehtiyoj/zarurat bor joyda qirqish mumkin emas». Ibn Molik va «At-Tasrih» asarlariga muvofiq, «(مررت بهمدح الرجلِ الكاملِ العاقلِ)» kabi gaplarda mavsufni ajratish uchun uchala na't orqali ajratilmagunicha ajrim yuz bermasa, hammasida e'rob (kelishik) da ergashish shart bo'ladi. Lekin faqat ulardan ba'zisi orqaligina bu narsa ta'minlansa, qolgan ehtiyojsiz sifatlarida uchala ehtimoliy ish ham joizdir. Agar man'ut nakira bo'lsa, uning birinchi na'tida ergashish majburiy, ma'rifa esa bundan mustasno bo'lib, matbu'dan qirqilishiga ruxsat etiladi.

«Ma'oniy an-nahv» asarida ta'kidlanishicha, «Sharh ar-Roziy ala al-Kafiya», «At-Tasrih», «Sharh Qatr an-Nado» va «Al-Komil» asarlari yakdil xulosa qiladiki, uzishning ruxsat etilishi na'tning mutlaqo ta'kid uchun bo'lmasligi hamda tinglovchining bu xislatdan xabardor bo'lishi bilan shart qilinadi[3]. Sibavayhning «Al-Kitob» asarida ham aytilganidek, bu o'rindagi nasb go'yoki fe'l borligi taxminida qilinadi: «Ahlini esla» yoki «Qo'poruvchilarni esla»[4]. Ular bu narsani faqatgina faxr va iftixor manbai qilib olganlar, yoki aksincha, tinglovchilarga ayon bo'lgan haqiqat bilan ularni fosh etish maqsadida so'kish o'rnida qo'llaganlar. «Sharhi As-Siyrofiy» buni yana ikki omilga bog'laydi: ehtirom etilayotgan zot aynan ta'zimga munosib kishi bo'lishi va tinglovchilar orasida juda mashhur bo'lishi.

Muallif o'z tahlilida e'rob o'zgarishlaridagi nozik farqlarga e'tibor qaratadi. Raf' (bosh kelishik) ga qarab qirqish anchayin pishiq, mustahkam va keng tarqalgan uslubdir. Chunki nasbdagi uzilish odatda fe'liy jumlalarga tobe bo'ladi (ya'ni, «Men buyukni e'tibor qilyapman»), raf'da esa u to'g'ridan to'g'ri ismga («U» azimdir) ma'nosiga ega bo'lib, ism fe'ldan ko'ra qat'iyatliroq va umri uzoqroqdir. Bog'lovchilar (atflar) orasida qirqishning berilishi ham bejiz emas. «Al-Kashshof» va «Sharhi Shuzur az-Zahab» da kelganidek, sabr qiluvchilar yoki namozni ado etuvchilarning boshqa o'rinlarda nasb holida kelishi — bu sifatlarning boshqa amallardan ustun ekanligi hamda qat'iy bajarilishi afzalligini bayon etish uchundir. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Fozil Samirroiy o'zining «Ma'oniy an-nahv» asarida bu qoidaning tilshunoslikda mubolag'a va balog'atning ajralmas qismi ekanligini mukammal tahlil qilib bergan.

Xulosa qilib aytganda, «Na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) arab tilining naqadar boy va moslashuvchan

[1] Ḥāshiyat Yās ʿalā at-Taṣrīḥ (2/117): Ḥāshiyah ʿalā Sharḥ at-Taṣrīḥ li-sh-Shaykh Yās ibn Zayn ad-Dīn al-ʿAlīmī al-Ḥimṣī. Ṭubiʿat maʿa Sharḥ at-Taṣrīḥ.

[2] as-Sāmarrāʾī, Fāḍil Ṣāliḥ. Maʿānī an-Naḥw. ʿAmmān: Dār al-Fikr, 1420 h. / 2000 m. 4/193–199.

[3] as-Sāmarrāʾī, Fāḍil Ṣāliḥ. Maʿānī an-Naḥw. ʿAmmān: Dār al-Fikr, 1420 h. / 2000 m. 4/193–199.

[4] Kitāb Sībawayh (1/248–250 va 1/252): Kitāb Sībawayh, muṣawwar ʿalā Ṭabʿat Būlāq. Nashr Maktabat al-Muthannā bi-Baghdād.

ekanligini ko‘rsatuvchi muhim sintaktik-uslubiy vositadir. Bu hodisa shunchaki grammatik qoidabuzarlik emas, balki so‘zlovchining tinglovchi ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish, mudroqlikdan uyg‘otish hamda madh yoki zamni eng yuqori balog‘at cho‘qqisida yetkazish san’atidir. Bu uslubning o‘rganilishi Qur’on oyatlari va mumtoz arab adabiyotidagi yashirin ma’nolarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu maqola arab tili grammatikasidagi o‘ziga xos va noyob sintaktik hodisalardan biri – «na’ti maqtu’» (uzilgan sifat) mavzusiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda sifat va sifatlanmish o‘rtasidagi e’rob (kelishik) moslashuvining ataylab buzilishi, ya’ni qirqish (قطع) hodisasining lingvistik va uslubiy maqsadlari tahlil qilinadi. Maqolada bu uslubning tinglovchi diqqatini jalb qilish, kuchli madh yoki zam (yomonlash) ma’nolarini ifodalashdagi balog‘at xususiyatlari yoritib berilgan.

Resume. This article is devoted to one of the distinctive and unique syntactic phenomena of Arabic grammar, namely na’t al-maqṭūʿ (detached adjective). The study analyzes the deliberate disruption of the case agreement between the adjective and the noun it modifies, a phenomenon known as qaṭʿ (detachment), and examines its linguistic and stylistic functions. The article highlights the rhetorical features of this construction in attracting the listener’s attention and in conveying strong meanings of praise or blame.

Резюме. Данная статья посвящена одному из своеобразных и уникальных синтаксических явлений арабской грамматики — на‘т аль-макту‘ (отделённое определение). В исследовании анализируется преднамеренное нарушение падежного согласования между определением и определяемым словом, известное как явление аль-кат‘ («отсечение», «разрыв»), а также рассматриваются его лингвистические и стилистические функции. В статье раскрываются риторические особенности данного приёма, связанные с привлечением внимания слушателя и выражением усиленных значений похвалы или порицания.